

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVChI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

*UDK: 93:33(575.1)*

**BOROTOV SHAROFIDDIN JUMAQUL O‘G‘LI**

**HUDUDLARNI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING  
TA’SIRCHANLIGINI OSHIRISH**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish  
uchun tayyorlangan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**

**i.f.n., dotsent. Tilabov Nasrulla Tashmuratovich**

## M U N D A R I J A

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. SOLIQ TIZIMI TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>15</b>
1.1-§ Soliq tizimining hududlarni rivojlantirishga ta'sirining ilmiy-nazariy asoslari.....	15
1.2-§ Mahalliy budjetlarning daromadlari va xarajatlarining mutanosibligini ta'minlashda soliq tizimning ta'sirchanligini oshirishning o'ziga xos hususiyatlari.....	27
1.3-§ Hududlarning soliq tizimiga ta'sir qiluvchi omillar tasnifi hamda chet el tajribalarining ahamiyati.....	34
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	40
<b>II BOB. HUDUDLARDA SOLIQ TIZIMINING TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHDA SOLIQ SALOHIYATINI ANIQLASH VA TAHLIL QILISHNI AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....</b>	<b>42</b>
2.1-§ Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning hududlardagi amaldagi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga ta'siri tahlili.....	42
2.2-§ Soliq tizimining ta'sirchanligini oshirishda soliqqa tortish va uning iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga ta'siri bilan bog'liq bo'lgan muammolar.....	58
2.3-§ Soliq tizimining ta'sirchanligini amaldagi holati va uning tendensiyalari tahlili.....	69
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	80
<b>III BOB. BUDJET DAROMADLARI SHAKLLANISHIDA SOLIQ TIZIMINING TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....</b>	<b>82</b>
3.1-§ Hududlarda tadbirkorlik sub'ektlarini iqtisodiy faoliyatiga soliq ta'sirchanligini oshirish xorij tajribasining natijadorligi.....	82
3.2-§ Hududlarda soliqlarni ta'sirchanligini oshirishdagi muammolar va bartaraf etishdagi qo'llaniladigan uslubiy yondoshuvlari.....	90
Uchinchchi bob bo'yicha xulosa.....	106
<b>XULOSA.....</b>	<b>108</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>112</b>
<b>ILOVALAR.....</b>	<b>118</b>

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hududlar iqtisodiyotini soliqlar vositasida rivojlantirish xalqaro va mamlakatimiz uchun muhim ahamiyat kasb etib, mahalliy byudjetlarga qo'shimcha soliqlarni aniqlash, hisoblash va undirish nafaqat byudjet daromadlarini qo'shimcha mablag'lar bilan ta'minlashni, balki iqtisodiy jihatdan mazkur hududda biznesni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishiga va mahalliy hokimliklarning ijtimoiy maqsadlarga mo'ljallangan dasturlarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababdan, mahalliy budgetlarga qo'shimcha mablag'larni aniqlash va undirish dunyo iqtisodchi olimlarining doimo diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan rus iqtisodchi olimlari, A.Seleznev, N.Dotsenkolarning fikricha "Mahalliy budget defitsitini moliyalashtirishdagi jiddiy muammo, mahalliy budget daromadlarini shakllantirish tizimini hamda soliq ta'sirchanligini oshirish to'g'ri yo'lga qo'yilishi lozim" hisoblaydilar<sup>1</sup>. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'kidlaganidek: "Xususan, davlat tomonidan banklarga katta resurs ajratilayapti. O'tgan yili mahalladagi tadbirkorlik uchun Sayxunobodga 120 milliard so'm berilgan. Tuman tadbirkorlari o'tgan yil soliqdan 85 milliard so'mlik imtiyoz olgan. Lekin, buning samarasi shunga yarasha emas. Xususiy sektorda yaratilgan rasmiy ish o'rni bor-yo'g'i 968 taga ko'paygan. 2023 yilda tumanda 167 ta yangi tadbirkor paydo bo'lgan bo'lsa, shuni yarmi hali ish boshlamagan."<sup>2</sup> degan. Bunda ko'rinish turibdiki hududlarni rivojlantirishda soliqlarni ta'sirchanligini oshirishda bir qator muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Buning uchun maqsadli vazifani aniq dasturlar asosida bajarish mamlakatimizda soliq ma'muriyatichiligi tizimini yanada rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlarida ko'rish mumkin. Buning asnosida jahon iqtisodiyotida huquqiy va iqtisodiy jihatdan shakllantirilgan hududlarni soliq ta'sirchanligini oshirish bo'yicha tajribalaridan foydalangan holda hududlarda soliq stavkalari

<sup>1</sup> Селезнев А., Доценко Н. Доходный потенциал местных бюджетов и его общегосударственное значение // Экономист. – 2016. – № 9. – С. 12-22.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqi. Toshkent. // Xalq so'zi. 2022 yil 20 avgust.

kamaytirish va hududlarni aniq hududga ta'sirini o'rgangan holda soliq imtiyozlarini berish, hududlarni soliq salohiyatlarini hisobga olgan holda va vaqt o'tishi bilan hududlarni rivojlantirishga oid standart soliq stavkalarini taqqoslash o'tkazgan holda soliq ta'sirchanligini yondoshuvlarni belgilash mumkin.

Biroq, asosiy e'tibor sifatida byudjet tushumi va xarajatlarini optimallashtirish muhim bo'lib, bunda hududlarga soliq tizimini ta'sirchanligini chuqur tahlilini olib borish lozim. Korxonalar faoliyatini qayta tiklash va soliq ma'muriyatchiligin yaxshilash hisobiga hududlarda soliq ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo'shimcha daromadlarni ta'minlash, soliq to'lovchilarni soliq qarzdorliklarini bo'lib-bo'lib to'lash jarayonlarida to'siqlar bo'lmasligiga alohida chora-tadbirlar belgilash lozim bo'ladi.

“Jaxon tajribasidan shuni ko'rishimiz mumkinki, hozirgi iqtisodiy vaziyat soliq tizimidan bir vaqtning o'zida uchta muammoni hal qilishni talab qiladi. Birinchidan, byudjetni o'z vaqtida to'ldirish, soliq tushumlarining o'sishini ta'minlash, soliq to'lovlarini yig'ish darajasini oshirish. Ikkinchidan, ishlab chiqarishni barcha bosqichlarida rivojlantirish va samaradorligini oshirish, sanoatni tarkibiy qayta qurish jarayonida yuzaga kelgan nomutanosibliklarni bartaraf etish zarurati. Uchinchidan, turmush darajasini yaxshilash va mamlakat aholisining ijtimoiy tabaqalanishini kamaytirish”<sup>3</sup>.

Hozirda jahonda hududlarni rivojlantirishda soliq tizimining ta'sirchanligini oshirish masalalari borasida qator ilmiy yo'naliishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Hududlarda soliq tizimi ta'sirchanligini oshirishda mahalliy soliqlar bo'yicha manbalarini aniqlash, soliq ma'muriyatchiligin takomillashtirish, soliqqa tortishning xalqaro standartlarini qo'llash, mazkur jarayonlarning monitoringni yuritish, avtomatlashtirish, dasturlash va raqamlashtirish orqali hisob va nazorat samaradorligini oshirish, soliq ta'sirchanligining zamonaviy usullarini joriy etish muhim tadqiqot yo'naliishlaridan hisoblanadi.

---

<sup>3</sup> Р.Ю.Левченко. кандидат экономических наук Повышение эффективности использования налогового потенциала территории тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.10.